

A.A.LUQMONJONOV
*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent
 islam Instituti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Abu Abdulloh Halimi o‘z davrini yetuk olimlaridan biri bo‘lgan. Mazkur maqolada Halimiyning o‘sgan muhiti, u yashagan davrdagi holatlar, u zotning ustozlari, u haqidagi maqtovlar, u zotning xulqlari va sifatlari, yozgan asarlarini va ilmiy faoliyatini o‘rganishga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: Abu Abdulloh Halimi, Abu Bakr Qaffol Shoshiy, Abu Bakr Uvdani, Jurjon, Buxoro, Movarounnahr, Xuroson, hadis, kalom ilmi, fiqh, kitob al-minhoj.

التعليق التوضيحي: كان أبو عبد الله الحليمي من كبار العلماء في عصره. في هذه المقالة، حاولنا دراسة البيئة التي نشأ فيها، والأحوال السائدة في زمنه، وشيخه، والمذاهب التي قيلت فيه، وأخلاقه وصفاته، ومؤلفاته، ونشاطه العلمي.

الكلمات المفتاحية: أبو عبد الله الحليمي، أبو بكر القفال الشاشي، أبو بكر العوداني، جرجان، بخارى، ما وراء النهر، خراسان، الحديث، علم الكلام، الفقه، كتاب المنهاج.

Annotation: Abu Abdullah Halimi was one of the prominent scholars of his time. In this article, we aimed to study the environment in which Halimi grew up, the circumstances of the period he lived in, his teachers, the praises written about him, his character and qualities, his authored works, and his scholarly activities.

Keywords: Abu Abdullah Halimi, Abu Bakr Qaffal Shashi, Abu Bakr Uvdani, Jurjan, Bukhara, Transoxiana, Khorasan, hadith, kalam (Islamic theology), fiqh, Kitab al-Minhaj.

Аннотация: Абу Абдуллоҳ Халимий был одним из выдающихся учёных своего времени. В данной статье мы постарались изучить среду, в которой он вырос, условия той эпохи, в которой он жил, его учителей, восхваления в его адрес, его нрав и качества, написанные им труды и его научную деятельность.

Ключевые слова: Абу Абдуллоҳ Халимий, Абу Бакр Каффоль Шоший, Абу Бакр Увдани, Джурдан, Бухара, Мавераннахр, Хорасан, хадис, калам, фикх, Китаб аль-Минхадж.

Abu Abdulloh Halimi o‘sgan muhit:

Inson o‘z davri va yashayotgan muhiti ta’sirida voyaga yetadi. Abu Abdulloh Husayn ibn Hasan ibn Muhammad ibn Halimi (Jurjoniy) hijriy 338-390 milodiy 949-950-yilda Jurjon dengizini (bu dengiz kasbiy dengiz bilan tanilgan) janubiy-sharqiyl qismida joylashgan Jurjon shahrida tug‘ilgan. Jurjon shahri hazirgi Fors davlatining Usturobod viloyatida joylashgan. Jurjon shahri Sosonoylar davrida muhum ahamiyatga

ega bo‘lgan. Chunki Jurjon shimoldan davlat yerlariga bostirib keladigan ko‘chmanchi qabilalarning hujumlarini qaytaruvchi chegara qal’asi vazifasini bajargan.¹

Abu Abdulloh Halimiyning nisbati:

U imom, hofiz Abu Abdulloh Husayn ibn Hasan ibn Muhammad ibn Halim, shofeiy mazhabidagi faqih bo‘lib, u "Halimiy" yoki "Jurjoniy" nomlari bilan mashhurdir. Bu nisbat uning bobosi Halimga bog‘liqdir. Uning otasi esa mashhur faqih Abu Muhammad ibn Halim ibn Ibrohim ibn Maymun as-Soig‘ al-Halimi al-Marvaziy bo‘lgan.

Abu Abdulloh Halimiy ba’zan tug‘ilgan joyi Jurjon shahriga nisbat berilib "Hofiz al-Jurjoniy" deb ataladi. Boshqa hollarda esa u voyaga yetgan va ilm olgan Buxoro shahriga nisbatan "Buxoriy" deb ham tilga olinadi. bobosiga nisbatan Halimiy, tug‘ilgan joyiga nisbatan Jurjoniy deb tanilgan.²

Abu Abdulloh Halimiy ilm, fiqh, adab bilan tanilgan mashur oilada tug‘ilgan. Otasi Abu Muhammad al- Hasan ibn Muhammad ibn Haliym ibn Ibrohim ibn Maymun as-Soig‘ al-Halimi al-Marvaziy, faqih, muhaddis bo‘lgan.

Keyin otasi Abu Muhammad ibn Halim al-Marvaziy, uni yoshligida davrning yirik ilm markazi va Somoniylar sultanati ostida bo‘lgan Buxoroga olib borgan. O’sha davrda Buxoro adabiyot, fiqh va hadisning poytaxti edi va odamlarni o‘ziga tortuvchi ajoyib tabiiy manzarasi bilan mashhur edi. Buxoro haqida “as-Suvarul aqlam” kitobi sohibi aytadi: "Movarounnahr diyorlarining eng go‘zalini aytadigan bo‘lsam, islam yurtlari ichida Buxorodan ko‘ra tashqi ko‘rinishi chiroyliroq bo‘lgan biror joyni na ko‘rdim va na eshitdim. Chunki qayerga qarama, har tomonda osmonning moviyligi bilan uyg‘unlashgan cheksiz yashillik ko‘rinadi. Go‘yo osmon yashil gumbazday bo‘lib, yashil gilamga yotqizilgandek tuyuladi. Qal’alar va saroylar bu yashillik orasida g‘uj-g‘uj turgan marvaridlar singari ko‘zga tashlanadi. Bu diyordagi yerlar to‘g‘ri va tekis bo‘lib, oynadek silliqdir. Movarounnahr va Xuroson ichida o‘z yerlariga buxoroliklardan yaxshiroq g‘amxo‘rlik qiladigan xalq yo‘q. Maydon jihatidan o‘lchaganda ham Buxoroning aholisi juda ko‘p. Bu fazilatlar aynan shu shaharga xosdir. Dunyoning eng go‘zal maskanlari Samarqandning bog‘lari va O‘bullo daryosi bo‘lsa-da, Buxoroning tabiatni va aholisining o‘ziga xosligi alohida e’tiborga loyiq."³

Shuningdek, fors allomasi as-Sa’alabiy "Yatimat ad-dahr" kitobida shunday yozgan: "Somoniylar davrida Buxoro ulug‘vorlik markazi, hukmdorlarning qibłasi, zamonasining tengsiz kishilari to‘planadigan maskan, yer yuzining adab ahli uchun yulduzlar chiqadigan joyi va asrning fozillari uchun uchrashuv makoni edi."⁴

¹ Imam Zahabiy. Tazkirotul Huffoz. – Haydarobod: Majlisu dairotul maoriful usmaniyya, 1957. – J. III. – B. 1030.

² Imam Subkiy. Tobaqot ash-Shofeinya. – Qohira: al-Matbaul Husniyya, 1324-h. – J. III. – B. 137.

³ Yaqut al-Hamaviy. Mo‘jamul Buldon. – Bayrut: Doru Bayrut, 1956. – J. I. – B. 353.

⁴ Imam Sa’alabiy. Yatimat ad-dahr. – Bayrut: Dorul kutub al-ilmiyya, 1983. – III. – B. 127.

O'sha davrda Buxorodagi mutafakkirlar masjidlarda uzoq-uzoq ilmiy muhokamalar olib borishar edi. Ba'zida bu ilmiy muhokamalarga ko'cha va xiyobonlarda ham duch kelish mumkin bo'lgan. Ilm-fan va adabiyot, fiqh va hadis ilmi bilan mashhur bo'lgan bu serhosil va boy shahar – Buxoroda Abu Abdulloh Halimiy hayot kechirdi. Halimiy aynan shunday ilmiy muhitda voyaga yetdi. U ilm ahli bo'lgan otasi bilan birga o'qigan va Ash'ariy mazhabining asoschisi Abul-Hasan al-Ash'ariyning muhim shogirdlari qatorida tilga olingan.

Halimiy Buxoroda Ash'ariylar va Shofeiylar mazhabining ulug' olimlari bilan birga bo'lib, ulardan saboq olgan. Halimiyning tug'ilgan uyi ilm, adabiyot va fiqh markazi sifatida tanilgan edi. Faqat otasi emas, balki uning ukasi Abul-Fazl Hasan ibn Hasan ibn Muhammad ibn Halimiy ham ilm bilan shug'ullangan. Otasi bir vaqtlar sulton Sanjar saroyida muftiylik bilan shug'ullangan. Hayotining so'nggi yillarida esa uyini Qur'on bilan mashg'ul kishilarning yig'ilish joyiga aylantirgan.⁵

Abu Abdulloh Halimiyning ustozlari:

Halimiy, mintaqaning ulug' olimlaridan dars olgan va Ash'ariyya mazhabining ulug' olimlaridan Abu Bakr Qaffol Shoshiy va Abu Bakr Uvdaning darslarida qatnashib, kalom va fiqh ilmlarini o'rgangan. U Mavarounnahr mintaqasida Shofeiy mazhabining targ'ibotchisi, fiqh va usuli fiqh imomi sifatida xizmat qilgan olimdir. Halimiyning ustozlaridan Qaffol Shoshiy, Imom Ash'ariyning shogirdi edi.

Halimiy, hadis ilmini o'rgangan ustozlaridan biri Sayrafiydir. Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Hanbal va Abu Ahmad Bakr ibn Muhammad Sayrafidan hadisni eshitib rivoyat qilgan. Mashhur muhaddislar Hokim Nisoburiy va Abu Zakariyya, Abdurrahim ibn Muhammad Buxoriy ham undan hadis rivoyat qilganlar orasida bo'lgan. U hali yoshligida Buxoroda hadis yozib olib, quyidagi ustozlaridan ta'lim oldi: Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Hanbal, Abu Ahmad Bakr ibn Muhammad ibn Hamdon Sayrafiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Husayn Jabahoniy.

Keyin u fiqh ilmini Abu Bakr Muhammad ibn Ali Qaffol Shoshiydan o'rganishni davom ettirdi. O'sha vaqtida u hali o'ttiz yoshga ham yetmagandi. Abu Bakr Qaffol Shoshiy shofeiy mazhabining buyuk ulamolaridan biri bo'lib, o'z davrida Mavarounnahr hududida bu mazhabni keng yoygan va uning yetakchi imomi hisoblangan. U fiqh va usul ilmlarida ko'plab kitoblar yozgan va hijriy 365-yilda vafot etgan.

Imom Halimiy Abu Bakr Qaffol Shoshiyning ta'sirida bo'lgan, chunki u Abu Hasan Ash'ariyning shogirdlaridan bo'lib, undan ilmiy majlislarda bevosita ta'lim olgan edi. Halimiy ham shunga ergashib, aqlni asosiy manba sifatida ko'rib, islomiy

⁵ Ibnu'l Asir. Al-Lubob fi tahzibil ansob. – Bag'dod: Maktabatul musanna, - J. I. – B. 382.

qonunlarni tushuntirishda mantiqiy bahs va aql hukmini qo'llashga e'tibor bergan. Bu holat uning kitoblarini tahlil qilganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, u fiqh ilmini Abu Bakr Udaniydan ham o'rgangan. Udaniy Buxoro yaqinidagi Udana qishlog'idan bo'lib, Halimiya haqida shunday guvohlik bergan: "Abu Abdulloh Halimiya – Imomdir".⁶

Buxoro va uning atrofida Halimiya hadis ilmining peshqadamlaridan biri bo'lib yetishdi. U asta-sekinlik bilan butun Movarounnahrda hadis ilmi bo'yicha e'tirof etilgan ulug' zotga aylandi. Hatto mashhur muhaddis Hakim Abu Abdulloh Nishopuriy Halimiya Nishopurga haj safaridan kelganida (hijriy 377-yilda) undan hadis rivoyat qilgan.⁷

Shuningdek, undan hadis olgan shogirdlari orasida Abu Zakariyo Abdurahim Buxoriy, Abu Said Kanjurudiy va boshqa ko'plab muhaddislar bor edi. Uning hadislari Movarounnahrda mashhur bo'lib, u o'z zamonasining hadis ilmi imomi bo'lib tanilgan.

Abu Abdulloh Halimiyanivayat qilingan mashhur hadislardan biri shunday: Uni Abu Said Kanjurudiy rivoyat qilgan bo'lib, u buyuk musnid Sharfiddin Abu Fazl Ahmad ibn Hibatulloh ibn Asokir orqali yetib kelgan.

Ahmad ibn Hibatulloh hijriy 695-yilda Hofiz Abu Hajjojning qiroatida shunday degan:

"Bizga Zohir ibn Tohir xabar berdi. Uni Imom Abu Said Muhammad ibn Ahmad Kanjurudiy xabar berdi. Uni Shayxul-Islom Imom Abu Abdulloh Husayn ibn Hasan ibn Muhammad Halimiya xabar berdi. Uni Bakr ibn Muhammad ibn Hamdon Sayrafiy rivoyat qildi. Uni Ahmad ibn Husayn rivoyat qildi. Uni Muqotil ibn Ibrohim rivoyat qildi. Uni Nuh ibn Abu Maryam rivoyat qildi. Uni Yazid Raqoshiy Anas ibn Molikdan rivoyat qildi. Anas raziyallohu anhu shunday deydi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar:

"Qur'on sohibi uchun xatm qilgan paytda ijebat qilinadigan duo bordur."⁸

Halimiya, ta'limini tugatgach, dastlab Buxoro, keyin boshqa shaharlar va mintaqalarda qozilik vazifasini bajargan. Hukmdorlar va volilarning e'tiboriga sazovor bo'lganligi sababli, vaqtiga-saqti bilan elchilik vazifasiga ham tayin etilgan. Somoniylar hukmdori Nasr ibn Nasr tomonidan Nishapurga (385/995) va Xorazm hukmdorining iltimosi bilan Jurjon amirligiga elchi sifatida yuborilgan (389/999).

Somoniylar Buxoroda hokimiyatni qo'lga olgan hijriy 387-yilgacha, Halimiya davlat ishlari bilan faol shug'ullanganligi ma'lum. Hatto Abu Nasr ibn Ismoil, Xorazm voliysi tomonidan elchi sifatida yuborilgan Halimiya vositachiligi orqali, Jurjonda hibsda bo'lgan bir kishi ozod qilingan.⁹

Abu Abdulloh Halimiya aytilgan maqtovlar:

⁶ Samoni. Al-Ansob. – Haydarobod: Majlisu daerotul maoriful usmaniyya, 1964. – J. I. – B. 221

⁷ Imom Subkiy. Tobaqot ash-Shofeiyyatul Kubro. – Qohira: al-Matbaul Husniyya, 1324-h. – J. III. – B. 147.

⁹ Samoni. Al-Ansob. – Haydarobod: Majlisu daerotul maoriful usmaniyya, 1964. – J. I. – B. 221.

Halimiy haqida tabaqot kitoblarida:

“O’z asri muhaddislarining sardori”, “Shofeiylarning eng ulug’ olimi”, “Ustozidan keyingi eng aqlli kishi”, “Peshqadam muftiy” kabi maqtovlar aytilgan. Bundan tashqari uning faqih, muhaddis, adabiyot bilmdoni, mutakallim, mazhabda o’z o’rniga ega olim bo’lganligi tabaqot kitoblarida zikr qilingan. Axloq borasida ham maqtovga sazovor, oliy xulqli ekani, barchaga birdek samimiyl muomalada bo’lgani, Allohga va diniga muxlis va hech qachon dunyo uchun oxiratini alishmaydigan bir shaxsiyat bo’lgani haqida ayni asarlarda aytilgan.

Imom Halimiy sulton nazarida yuksak mavqega ega bo‘lib, hukmdorlar va noiblari unga katta hurmat ko‘rsatgan. U nafaqat oddiy xalq orasida, balki olimlar va amaldorlar orasida ham obro‘ qozongan. Sulton uni tez-tez elchi sifatida ishlatgan, boshqa hokimlar bilan bo‘lib o‘tgan muammolar va nizolarni hal qilishda vositachilik qilgan.

Abu Qosim Hamza ibn Yusuf Sahmiy esa shunday yozadi:

“Abu Abdulloh Halimiy Jurjon shahrida hijriy 338-yilda tug‘ilgan. U hali yoshligida Buxoroga ko‘chib o‘tgan va u yerda hadis yozib olib, fiqh ilmini o‘rgangan. Keyinchalik, u Buxoro va uning atroflaridagi hadis ahli yetakchisi bo‘lib yetishdi hamda turli hududlarda qozilik lavozimini egalladi. Hijriy 389-yilda u Xuroson amiri tomonidan Jurjon amiri Qobus ibn Vashmgir huzuriga elchi sifatida yuborildi. O‘sha paytda mashhur olim Abu Nasr Ismoiliy Qobus tomonidan qamoqqa olingan edi. Imom Halimiy uning ozod qilinishiga sabab bo‘ldi va uni o‘z himoyasiga olib, yurtiga qaytardi. Halimiy shu yili Jurjonda hadis rivoyat qilib, ilmiy majlislar o‘tkazdi.”¹⁰

Shu ma’lumotlardan ayon bo‘ladiki, Imom Halimiy o‘z zamonasining buyuk olim bo‘lib, keng bilimga ega edi. U hukmdorlar bilan yaqin aloqada bo‘lib, yuksak e’tiborga loyiq ko‘rilgan. Xuroson va Movarounnahr bo‘ylab ham olimlar, ham oddiy xalq tomonidan hurmat qilingan.¹¹

U zotni xulqi va sifatlari:

Abu Abdulloh Halimiy faqih, muhaddis, mutakallim, adib va yuksak darajadagi olim bo‘lib, shofi’iy mazhabida yuksak ilmga ega edi. Imom Zahabiy uni shunday ta’riflagan:

“U o‘z zamonasining eng zukko kishilaridan, nazar va tadqiqot sohasida yetuk ulamolardan edi. Ilm va adabda katta obro‘ga ega bo‘lgan.”¹²

Shuningdek, u o‘z davrida shofeiy mazhabining yetakchi olimlaridan biri, Buxoro va Movarounnahrda hadis ilmining peshqadami hamda ulug‘ imom sifatida tanilgan.

¹⁰ Samoniy. Al-Ansob. – Haydarobod: Majlisu dairotul maoriful usmaniyya, 1964. – J. IV. – B. 221.

¹¹ Hilmiy Muhammad Fuda. Al-Minhoj fi shu’abil iymon – muqaddima. Tahqiq qilingan. – Bayrut: Dorul fikr, 1979. – J. I. – B. 17.

¹² Imom Zahabiy. Tazkirotul Huffoz. – Haydarobod: Majlisu dairotul maoriful usmaniyya, 1957. – J. II. – B. 1030.

Imom Halimiy zamoniga eng yaqin tarixchilaridan biri bo‘lgan "Kitob al-Ansab" muallifi uni shunday ta’riflaydi:

“U yuksak maqomga ega bo‘lgan ulug‘ imom edi. Undan maslahat so‘ralgan, ilmiy jihatdan mustahkam asarlar yaratgan alloma bo‘lgan.”¹³

Ibn Qozi Shahba esa Hakim Abu Abdullohning so‘zlariga tayangan holda Halimiyni quyidagicha ta’riflaydi:

“Halimiy shofeiy mazhabining eng yuksak darajasidagi olimlaridan edi. Adab va nazariy fikr yuritish borasida eng yetuk zotlardan bo‘lib, ustozlari Qaffol va Udaniydan keyin shofeiy olimlari ichida eng yuksak maqomga ega bo‘lgan. U chuqur ilmiy tahlil va fiqhiy tafakkurga ega bo‘lgan olim bo‘lib, uning asarlaridan Abu Bakr Bayhaqiy ko‘plab ilmiy ma’lumotlarni keltirib o’tgan. Abu Bakr Bayhaqiy shunday degan:

“Halimiy yuksak maqomli inson bo‘lib, uning ilmini to‘liq anglash faqat eng chuqur tafakkur qiluvchilar uchun mumkin edi.”

Imom Halimiy nafaqat ilm va adab borasida yuksak darajaga yetgan, balki u shofeiy fiqhida yuksak ilm sohibi, kamtarin, taqvodor, halol yashovchi, axloqan pok, odamlarga nisbatan muruvvatli va samimiy inson edi. U dunyo ne’matlari ortidan quvmas, balki faqat oxirat saodatini istar edi.¹⁴

AbuAbdulloh Halimiyning asarlari:

Tarix kitoblarida Halimiyning bir qancha asarlari bo‘lgani haqida so‘z yuritiladi. Ammo afsuski, hozirga qadar bu asarlardan faqatgina “Kitobul Minhoj fiy Shu’abil Iymon” asari yetib kelgan xolos. Bu kitobga ko‘z yugurtirsak, uning bundan boshqa kitoblari ham bo‘lganini tushunib yetamiz. Kalom, fiqh va hadis oid mavzularda yuritgan so‘zlarini sinchiklab o’rgansak, bu kitob musannifning birinchi asari emasligi yanada oydinlashadi. Chunki, bunga o’xshash keng ko’lamda kalom, fiqh va hadisga oid mavzularni o’z ichiga olgan asarning egasi, bu darajada qalam yuritish uchun bundan oldin bir qancha qoralamalar yozgan bo‘lishi lozim. Ibn Imod “Shazoratuz Zabab” da, Hoji Xalifa esa “Kashfuz Zununda” unga Qiyomat alomatlari va Qiyomat holatlari deb nomlangan ikki asarni nisbat beradilar. Halimiy haqida ensiklopediya yozgan Metin Yurgadur o’sha asarlar Minhojning boblarini sharhlagan bir asar ekanini aytadi.¹⁵

Abu Abdulloh Halimiyning vafoti:

Tarixiy manbalarning ittifoqiga ko‘ra, imom Abu Abdulloh Halimiy (vaf. 403/1012) Buxoro shahrida vafot etgan. Imom Halimiy hijriy 403-yil, milodiy 1012-

¹³ Samoniy. Al-Ansob. – Haydarobod: Majlisu dairotul maoriful usmaniyya, 1964. – J. IV. – B. 221.

¹⁴ Ibn Imod. Shazarot az-Zahab fi Ixbari min Zahab. – Qohira: Matba’at as-Sa’ada, 1455 h. – J. III. – B. 167.

¹⁵ Veysel Kasar. Halimiyning al-Minhoj kitobi va kalom ilmi naqtayi nazaridan ahamiyati. – Harran Universitetini rasmiy veb sayti, 2006 – B. 7.

yilda Allohnинг huzuriga qaytganiga barcha tarixchilar yakdil fikrdalar. Biroq, uning vafot etgan oyi borasida manbalar o‘rtasida tafovut mavjud.

Ba’zi tarixiy manbalarda imom Halimiyning Rabi‘ul avval oyida vafot etgani zikr qilingan. Masalan, Ibn Manda (vaf. 395/1005) va undan rivoyat qilgan Ibn Asakir (vaf. 571/1176) o‘z asarlarida uning Rabi‘ul avval oyida vafot etganini aytganlar.

Boshqa ayrim manbalarda esa imom Halimiyning vafoti Jumodul ular oyiga to‘g‘ri kelgani haqida ma’lumot berilgan. Xususan, imom Zahabiy (vaf. 748/1348) o‘zining mashhur asari "Siyar A’lam an-Nubalo"da ham shunday rivoyatni keltiradi. Shuningdek, "Tabaqot ash-Shofeiy" muallifi Abu Abdurahmon as-Sulamiy (vaf. 412/1021) tomonidan ham Jumodul ular oyida vafot etganini ta’kidlangan.

Ushbu tafovut o‘sha davrda tarixiy voqealar sanasining aniq va yagona taqvimga asoslanmaganligi natijasida yuzaga kelgan. Shuning uchun ilmiy tadqiqotlarda imom Halimiyning 403-hijriy yilda Buxoroda vafot etgani qat’iy qabul qilinadi, vafot etgan oyi esa ikki xil rivoyat shaklida beriladi.¹⁶

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imom Zahabiy. Tazkirotul Huffoz. – Haydarobod: Majlisu dairotul maoriful usmaniyya, 1957. – J. III. – B. 1030.
2. Imom Subkiy. Tobaqot ash-Shofeiyya. – Qohira: al-Matbaul Husniyya, 1324-h. – J. III. – B. 137.
3. Yaqut al-Hamaviy. Mo‘jamul Buldon. – Bayrut: Doru Bayrut, 1956. – J. I. – B. 353.
4. Imom Sa’alabiy. Yatimat ad-dahr. – Bayrut: Dorul kutub al-ilmiyya, 1983. – III. – B. 127.
5. Ibnul Asir. Al-Lubob fi tahzibil ansob. – Bag’dod: Maktabatul musanna, - J. I. – B. 382.
6. Samoniy. Al-Ansob. – Haydarobod: Majlisu dairotul maoriful usmaniyya, 1964. – J. I. – B. 221.
7. Hilmiy Muhammad Fuda. Al-Minhoj fi shu’abil iymon – muqaddima. Tahqiq qilingan. – Bayrut: Dorul fikr, 1979. – J. I. – B. 17.
8. Ibn Imod. Shazarot az-Zahab fi Ixbari min Zahab. – Qohira: Matba’at as-Sa’ada, 1455 h. – J. III. – B. 167.

¹⁶ Hilmiy Muhammad Fuda. Al-Minhoj fi shu’abil iymon – muqaddima. Tahqiq qilingan. – Bayrut: Dorul fikr, 1979. – J. I. – B. 19.